

“O‘zavtosanoat” AJ tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan MA’LUMOT

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan avtomobilsozlik sanoatiga qaratilayotgan e‘tibor hamda sohani rivojlantirishga doir ilgari surilayotgan tashabbuslar natijasida ishlab chiqarish, eksport, mahalliyashtirish darajasini oshirish va investitsiya loyihalarini kengaytirish yo‘nalishlari avtomobilsozlik sanoatining ustuvor rivojlanish omillariga aylandi.

“O‘zavtosanoat” AJ tarkibiy korxonalarini tomonidan 2025-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **72,2 trln so‘mni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan o‘shir sur‘ati **105,1 foizni** tashkil etdi.

Respublika bo‘yicha jami **457,9 ming dona** yengil avtomobil va **3,7 ming dona** avtomobil to‘plamlari ishlab chiqarildi. Bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan **106,7 foizni** (+28,7 ming dona) tashkil etdi.

Jumladan, “UzAuto Motors” AJda – **393,2 ming dona**, “BYD Uzbekistan Factory” MChJda – **20,2 ming dona**, “ADM Jizzakh” MChJ va boshqalarda – **48,1 ming dona**.

Xorijiy davlatlarga 622,1 mln dollar miqdorida eksport amalga oshirildi. Mahsulotlar kesimida 457,8 mln dollarlik yengil avtomobillar hamda 164,3 mln dollarlik avtobuslar, yuk avtomobillari, ehtiyot qismlar, qishloq xo‘jaligi texnikalari va boshqa mahsulotlar eksport qilindi.

2025-yilda **21 ta investitsiya loyihasi** doirasida **91,2 mln dollar** miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi, shundan **63,1 mln dollar** to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga. Hisobot davrida 3 ta loyiha ishga tushirildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan “UzAuto Motors” AJda **3-presslash tsexi** ishga tushirildi. Mazkur loyiha orqali yiliga qo‘shimcha **140 ming dona avtomobil** ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Bu esa, hozirda yiliga 410 ming dona avtomobil ishlab chiqarayotgan korxonalar salohiyatini **550 ming donaga** yetkazadi. Natijada ishlab chiqarish hajmi avvalgiga nisbatan **25 foizga** oshadi.

“Uzauto Motors Powertrain” AJ va O‘zbekiston texnologik metallar kombinati o‘rtasida kukun metallurgiyasi asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlardan avtomobil sanoatida foydalanish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni mahalliyashtirish maqsadida **hamkorlik va anglashuv memorandumini imzolandi**.

Mazkur hujjat doirasida kukun metallurgiyasi asosida avtomobil sanoatiga mos mahsulotlar ishlab chiqarish va mahalliyashtirish, xalqaro sertifikatlarni olish kabi bir qator yo‘nalishlarda hamkorlik qilishga kelishildi.

Korxonalar tomonidan mahalliyashtirish dasturi doirasida **9,1 trln so‘mlik 14 turdagi mahsulotlar** ishlab chiqarildi, tannarx **2,5 trln so‘mga** kamaytirildi va jami **1 352 ta yangi ish o‘rinlari** yaratildi. 2025-yil yakuni bilan rentabellik darajasi **6,8 foizni** tashkil etdi.

Toshkent shahrida “SAP Business Unleashed Innovation Day” tadbiri doirasida “UzAuto Motors” AJ “Davlat sektorida ishga tushirilgan eng yirik SAP loyihasi” (The largest SAP project go live in Public Sector) nominatsiyasida taqdirlandi.

SAP tizimi orqali “UzAuto Motors” AJ biznes jarayonlarini zamonaviy SAP/ERP platformasiga integratsiya qildi hamda boshqaruv, ishlab chiqarish logistika, xarid, kadrlar va mijozlar bilan ishlash jarayonlarini yuqori darajada raqamlashtirishga erishdi. Kompaniya real vaqt rejimida ma’lumotlarni tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish va boshqa bir qancha imkoniyatlarga ega bo’ldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan e’lon qilingan 2024-yilgi Ochiqlik indeksi natijalariga ko’ra, “O‘zavtosanoat” AJ **89,3 ball** to‘plagan holda davlat organlari va tashkilotlari orasida kuchli uchtalikdan joy oldi.

O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim sohasidagi yutuqlarni e’tirof etuvchi nufuzli “SCIENCE AND INNOVATION AWARDS 2025” marosimida **Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti** oliygohlar orasidan **“Yilning eng yaxshi oliy ta’lim muassasasi”** nominatsiyasi g‘olibi deb topildi.

Shuningdek, Davlatimiz Rahbari tomonidan ilgari surilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuslarni izchil va samarali amalga oshirish maqsadida O‘zavtosanoat AJ va tarmoq korxonalari tomonidan mamlakatimizning turli hududlarida ijtimoiy loyihalar ham izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, “UzAuto Motors” AJ hamda Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati hamkorligida maktab o‘quvchilarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xususan, mamlakatimizning bir qator umumta’lim maktablari atrofida zamonaviy yo‘l xavfsizligi infratuzilmasini joriy etish va bolalar harakati uchun xavfsiz muhit yaratish maqsadida homiylik asosida keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarilmoqda.

Mazkur tashabbus doirasida maktablar atrofidagi yo‘l uchastkalarini tartibga keltirish, yo‘llarni tekislash, piyodalar yo‘laklari yaxshilash, hududlarni obodonlashtirish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat yo‘l-transport hodisalarining oldini olish, balki o‘quvchilarning maktabga qatnovi davomida xavfsizligini tizimli ravishda ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, “O‘zavtosanoat” AJ hamda “BYD Uzbekistan Factory” MChJ homiyligida Jizzax viloyatining chekka va olis hududlarida aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, bandligini ta’minlash, hududlar infratuzilmasini yaxshilash hamda fuqarolarning turmush sharoitini yuksaltirishga qaratilgan keng ko‘lamli ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida yangi ish o‘rinlari yaratish, kasb-hunar ko‘nikmalarini rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

“UzAuto Motors” AJ uchun yana bir tarixiy sanalardan biri – 2025 yilda Asaka zavodidan **5 millioninchi avtomobilning ishlab chiqarilgani** bo’ldi. Bu raqam ostida konveyerdan Chevrolet Onix chiqdi. Ma’lumot uchun, 2022-yilda 4 millioninchi avtomobil sifatida Chevrolet Tracker ishlab chiqarilgan edi.

“BYD Uzbekistan Factory” MChJ zavodida o‘zbek tilida ovozli boshqaruvga ega **Song Plus UzPride gibril crossoverining taqdimoti** bo‘lib o‘tdi. Bu O‘zbekistonda mahalliy lashtirilgan birinchi gibril model hisoblanadi.

“O‘zavtosanoat” AJ birinchilardan bo‘lib matbuot xizmatida Sun‘iy intellekt yordamida yaratilgan virtual assistentlar faoliyatini ishga tushirdi. Javlonbek va Malika assistentlari milliy va jahon avtomobilsozlik faoliyatiga oid yangiliklar, e‘lonlar va foydali ma‘lumotlarni muntazam tarzda yetkazib borishmoqda.

“O‘zavtosanoat” AJ tizimida yoshlar bilan ishlash yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, “O‘zavtosanoat” AJ va tizim korxonalarida **31,1 ming nafar** xodimlar faoliyat ko‘rsatib, shulardan **12,2 ming nafarini (39,4%) 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar** tashkil etadi.

Xususan, “UzAuto Academy”da kasblar va chet tillari bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etilib, ushbu o‘quv kurslarida 7,3 ming nafar yoshlarning malakasi bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-martdagi topshirig‘i bilan “O‘zavtosanoat” AJga Andijon shahridan jami 89 nafar vaqtincha ishsiz yoshlar biriktirilgan bo‘lib, ularni o‘zini-o‘zi band qilish va ishsiz yoshlar safidan chiqarish maqsadida “Mahalla yettiligi” ko‘magida subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratildi, har xil turdagi hunarmandchilik asbob-uskunalarini (payvand dastgoh, bolgarka va boshqalar) hamda ishlab chiqarishda kerak bo‘ladigan boshqa turdagi dastgohlar (hamir qorgich, pishiriq pechi) bilan ta‘minlandi.

Qolaversa, tizim korxonalar rahbarlari tomonidan **2024–2025 o‘quv yilida** 12 ta oliy ta‘lim muassasalarida **85 marotaba “Rahbar va talabalar” uchrashuvlari, 111 marotaba “Ochiq eshiklar kuni” va “Ochiq muloqot” uchrashuvlari** hamda bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari o‘tkazildi. Ushbu tadbirlarda **4,8 mingdan ziyod talabalar** ishtirok etdi.